IRFAN
AKADEMIYASI
ILM • TA'LIM • TARAQQIYOT


RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILM, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALAR
UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

OKTABR

TOSHKENT
O'ZBEKISTON



ERTAK TERAPIYASI ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQIY VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Usmonova Gulira'no Mahammadamin qizi

Namangan viloyati Norin tumani

48-Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.23216927

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada ertak terapiyasi (skazkoterapiya) metodi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Ertak terapiyasining psixologik-pedagogik mohiyati, uning bolalar lug'at boyligi, bog'lanishli nutqi, muloqot ko'nikmalari va ijtimoiy-emotsional kompetentligiga ta'siri yoritilgan. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ishlariga tayangan holda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari keltirilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertak terapiyasi elementlaridan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ertak terapiyasi, skazkoterapiya, nutqiy kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, maktabgacha yosh, bog'lanishli nutq, emotsional intellekt, muloqot ko'nikmalari.

АННОТАЦИЯ. В данной статье с научно-теоретической и практической точки зрения анализируется развитие речевых и социальных компетенций детей дошкольного возраста посредством метода сказкотерапии. Раскрывается психолого-педагогическая сущность сказкотерапии, её влияние на словарный запас, связную речь, коммуникативные навыки и социально-эмоциональную компетентность детей. С опорой на труды отечественных и зарубежных исследователей представлены результаты опытно-экспериментальной работы.

Ключевые слова: сказкотерапия, речевая компетенция, социальная компетенция, дошкольный возраст, связная речь, эмоциональный интеллект, коммуникативные навыки.

ABSTRACT. This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the development of speech and social competencies in preschool children through the method of fairy-tale therapy. It reveals the psychological-pedagogical essence of fairy-tale therapy and its influence on children's vocabulary, coherent speech, communication skills and socio-emotional competence, drawing on the works of both local and foreign researchers together with the results of experimental pedagogical work.

Keywords: fairy-tale therapy, speech competence, social competence, preschool age, coherent speech, emotional intelligence, communication skills.

KIRISH. Maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan sensitiv davr hisoblanadi. Aynan shu davrda lug‘at boyligi jadal shakllanadi, bog‘lanishli (monologik va dialogik) nutq rivojlanadi, shuningdek bola atrofdagilar bilan munosabatga kirishish, his-tuyg‘ularini boshqarish va guruh me'yorlariga moslashish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni egallaydi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga faol kirib kelishi natijasida bolalar bilan jonli muloqot ko‘pincha gadjetlar bilan almashinmoqda, bu esa lug‘at boyligining kambag‘allashuvi, nutq bog‘lanishliligining buzilishi va his-tuyg‘ularni ifodalashda qiyinchiliklarga olib kelmoqda.[1]

Ushbu muammoni bartaraf etishning samarali va tabiiy vositalaridan biri — ertak terapiyasi (skazkoterapiya) hisoblanadi. Ertak terapiyasi o‘yin, psixologiya va ijodkorlik elementlarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, u nafaqat bolaning lug‘at boyligini oshiradi, balki unga o‘z fikr va tuyg‘ularini ifodalashni ham o‘rgatadi. Rus pedagogi V.A. Suxomlinskiyning ta'kidlashicha, "ertak — bu bola hayotiy hodisalarga emotsional baho berishni o‘rganadigan urug‘chadir". Zamonaviy skazkoterapiya metodikasining asoschisi T.D. Zinkevich-Yevstigneyeva bo‘lib, u ertak terapiyasini shaxsning ruhiy yo‘li va ijtimoiylashuvi haqidagi bilimlarni uzatish tizimi sifatida ta'riflaydi.

Ertak terapiyasining ijtimoiy komponentiga kelsak, ertak muhokamasi jarayonida bolalar o‘z taassurotlari va his-tuyg‘ulari bilan bo‘lishadilar, bu esa muloqot qilish, tinglash va fikrni

[1] Вишневская Т.В. Сказкотерапия как средство формирования развития речи дошкольников: методическая разработка. — 2023

bayon etish ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ko‘plab ertaklar do‘stlik, halollik va boshqa ijtimoiy me'yorlarning ahamiyatini anglashga yordam beruvchi axloqiy saboqlarni o‘z ichiga oladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, an'anaviy nutq o‘stirish mashg‘ulotlari ko‘pincha faqat leksik-grammatik mashqlarga asoslangan bo‘lib, bolaning emotsional-ijtimoiy jihatlarini yetarlicha qamrab olmaydi. Ertak terapiyasi esa nutqiy va ijtimoiy-emotsional rivojlanishni yaxlit, tabiiy va bolalar uchun qiziqarli tarzda birlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi — ertak terapiyasi elementlaridan foydalangan holda tashkil etilgan mashg‘ulotlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy (lug‘at boyligi, bog‘lanishli nutq, tovush talaffuzi) va ijtimoiy (muloqotga kirishuvchanlik, hamkorlik, empatiya) kompetensiyalariga ta'sirini ilmiy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: 1) ertak terapiyasi va bolalar nutqiy-ijtimoiy rivojlanishi tushunchalarining nazariy asoslarini tahlil qilish; 2) maktabgacha ta'lim tashkilotida ertak terapiyasi mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasini ishlab chiqish; 3) tajriba-sinov ishlari orqali uning samaradorligini aniqlash; 4) olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar shakllantirish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot 2025–2026 o‘quv yilida bir nechta maktabgacha ta'lim tashkilotining o‘rta va katta guruhlarida (4–6 yosh, jami 48 nafar tarbiyalanuvchi) olib borildi. Tadqiqot ikki bosqichda — aniqlovchi va shakllantiruvchi bosqichlarda tashkil etildi, bolalar tasodifiy tanlov asosida tajriba (24 nafar) va nazorat (24 nafar) guruhlariga ajratildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: a) nazariy metodlar — mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish; b) empirik metodlar — pedagogik kuzatuv, suhbat, bolalar nutqiy mahsulotlarini (qayta hikoyalash, mustaqil hikoya tuzish) tahlil qilish; v) diagnostik metod — bolalar nutqini baholashning moslashtirilgan mezonlari (lug‘at boyligi, gap tuzish qobiliyati, bog‘lanishli hikoya qilish, tovush talaffuzi) hamda ijtimoiy kompetentlikni baholash mezonlari (muloqotga

kirishuvchanlik, tengdoshlari bilan hamkorlik, his-tuyg'ularni tan olish va nomlash, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish) asosida amalga oshirildi; g) statistik-matematik metod — natijalarni qiyosiy tahlil qilish.

Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhi bolalari bilan 10 hafta davomida haftasiga ikki marta ertak terapiyasi mashg'ulotlari tashkil etildi. Har bir mashg'ulot quyidagi tuzilishga ega bo'ldi: ertakni emotsional ifodali o'qish yoki aytib berish, ertak qahramonlari va voqealari yuzasidan suhbat-muhokama, dramatizatsiya (rol o'ynash, qo'g'irchoq teatri elementlari), ijodiy topshiriq (ertakka muqobil oxir o'ylab topish, yangi qahramon kiritish yoki ertakni rasm orqali ifodalash). Xalq ertaklari bilan bir qatorda didaktik va psixokorreksion ertaklardan ham foydalanildi, bu turdagi ertaklar bolalarga yangi bilim va tushunchalarni jonlantirilgan obrazlar orqali yetkazish, shuningdek xavotir, qo'rquv kabi holatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.[2] Nazorat guruhida esa an'anaviy dastur asosidagi nutq o'stirish mashg'ulotlari davom ettirildi.

NATIJALAR. Aniqlovchi bosqich natijalariga ko'ra, ikkala guruh bolalarining nutqiy va ijtimoiy kompetensiya ko'rsatkichlari boshlang'ich bosqichda deyarli teng darajada bo'lgan. 10 haftalik shakllantiruvchi ishlardan so'ng o'tkazilgan takroriy diagnostika natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ko'rsatkich	**Tajriba guruhi (dastlab)**	**Tajriba guruhi (yakunda)**	**Nazorat guruhi (yakunda)**
Lug'at boyligi	40%	66%	46%
Bog'lanishli hikoya qilish	34%	62%	40%
Muloqotga kirishuvchanlik	37%	64%	43%
Empatiya va hamkorlik	35%	60%	41%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli o'sish qayd etildi: lug'at boyligi 26 foiz punktga, bog'lanishli hikoya qilish 28 foiz

[2] Сказкотерапия в работе с детьми раннего возраста: методические рекомендации. — 2022.

punktga, muloqotga kirishuvchanlik 27 foiz punktga, empatiya va hamkorlik ko‘rsatkichi esa 25 foiz punktga oshdi. Nazorat guruhida o‘sish nisbatan past (6–7 foiz punkt atrofida) bo‘lib, bu farq ertak terapiyasining nutqiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, dramatizatsiya elementlari bilan boyitilgan mashg‘ulotlarda bolalar o‘zlarini ertak qahramoni o‘rniga qo‘yib, uning his-tuyg‘ularini tushunishga harakat qildilar, bu esa empatiya rivojiga ijobiy ta'sir ko‘rsatdi. Muhokama jarayonida bolalar tobora ko‘proq murakkab gap tuzilmalaridan foydalanishga, o‘z fikrini asoslashga va tengdoshining fikriga izohli munosabat bildirishga o‘rgandilar.

MUHOKAMA. Olingan natijalar N.A. Ignatyevaning tadqiqot xulosalari bilan mos keladi: muallif ertak terapiyasining bolalar ijtimoiy rivojlanishidagi rolini alohida ta'kidlab, guruh muhokamalari jarayonida bolalarda muloqot ko‘nikmalari, tinglash va fikrni ifodalash qobiliyati rivojlanishini qayd etadi. Shuningdek, T.V. Vishnevskayaning tadqiqotida ham ertak terapiyasi nafaqat lug‘at boyligini oshiruvchi, balki bolaning fikr va his-tuyg‘ularini ifodalashga o‘rgatuvchi tabiiy va samarali metod sifatida ta'riflangan, bu bizning tadqiqotimiz natijalarini nazariy jihatdan tasdiqlaydi.

Ertak terapiyasi mashg‘ulotlarida nutqning kommunikativ yo‘nalganligi ta'minlanishi, leksik-grammatik vositalarning takomillashuvi, dialogik va monologik nutqning rivojlanishi hamda qulay psixologik muhitning yaratilishi haqidagi xulosalar boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham qayd etilgan [10]. Bizning tajriba dasturimizda ham aynan shu tamoyillarga amal qilindi: har bir mashg‘ulot bolaga xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhitda o‘z fikrini erkin bayon etish imkonini berdi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida bir qator o‘ziga xosliklar aniqlandi: kichik kichik guruhlarda (5–6 nafar bola) o‘tkazilgan mashg‘ulotlar katta guruhlarga nisbatan yuqoriroq samara berdi, chunki har bir bolaning ertak muhokamasida faol ishtirok etish imkoniyati ortdi. Introvert xarakterdagi bolalarda dastlabki haftalarda faollik pastroq bo‘lgan bo‘lsa-da, qo‘g‘irchoq teatri va rasm chizish kabi bilvosita ifoda vositalari ularning ham ochilishiga yordam berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ertak terapiyasi bolalarda nafaqat nutqiy ko‘nikmalarni, balki ijtimoiy-emotsional muvozanatni, o‘zaro hurmat va hamkorlik madaniyatini ham shakllantiradi. Bu esa ularning maktab ta'limiga va kengroq ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishida muhim zamin yaratadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ertak terapiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali va tabiiy vositasi bo‘lib, u lug‘at boyligi, bog‘lanishli nutq, muloqotga kirishuvchanlik va empatiya ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi.
2. Tajriba-sinov ishlari natijalari tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha ancha yuqori o‘sish sur'atini tasdiqladi, bu esa ilgari surilgan gipotezaning to‘g‘riligini isbotlaydi.
3. Ertak terapiyasi mashg‘ulotlarini tashkil etishda dramatizatsiya, ijodiy topshiriqlar va kichik guruhlarda ishlash usullaridan foydalanish natijadorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertak terapiyasi burchaklarini tashkil etish; tarbiyachilarning skazkoterapiya metodikasi bo‘yicha malakasini muntazam oshirib borish; oilalar bilan hamkorlikda uyda ham ertak o‘qish va muhokama qilish an'analarini rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish; ta'lim dasturlariga xalq ertaklari bilan bir qatorda didaktik va psixokorreksion ertaklarni izchil kiritish.

Kelgusi tadqiqotlar ertak terapiyasining bolalar hissiy-irodaviy sohasiga hamda uzoq muddatli ta'siriga bag‘ishlanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shodiyeva N. Nutq o‘stirish uslubiyoti. — Toshkent: O‘qituvchi nashriyot-matbaa, 2008.
2. Ochilova X.Sh. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqini rivojlantirish // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. — 2023. — № 3(11). — B. 278–284.
3. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishda tarbiyachi nutqining

ahamiyati // Ilmiy maqola. — Zenodo, 2024. DOI: 10.5281/zenodo.10497440.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda til va nutq rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va dolzarb muammolari // Konferensiya materiallari. — Zenodo, 2025. DOI: 10.5281/zenodo.17300081.
5. Islomova O. Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar nutqini tuzatishda sifatli logopedik xizmat // Ilmiy to‘plam. — scienceweb.uz, 2020.
6. Isabayeva A.Yu. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni tinglash, fikrlash va muloqotni rivojlantirish uchun mashg‘ulot davomida o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan o‘yinlar // Konferensiya materiallari. — Zenodo, 2022. DOI: 10.5281/zenodo.6582191.
7. Вишневская Т.В. Сказкотерапия как средство формирования развития речи дошкольников: методическая разработка. — 2023.
8. Сказкотерапия в работе с детьми раннего возраста: методические рекомендации. — 2022.
9. Зинкевич-Евстигнеева Т.Д. Основы сказкотерапии. — СПб.: Речь, 2006. — 176 с.
10. Сказкотерапия как средство развития речи дошкольников: методическая разработка. — 2021.
11. Игнатьева Н.А. Влияние сказкотерапии на развитие дошкольника: методическая разработка педагога-психолога. — Санкт-Петербург, 2024.
12. Сказкотерапия, как средство развития речи детей дошкольного возраста: консультация для родителей. — 2021.